



## MARGARET DREBBL IJODIDA INSON TABIATI IFODASI HUMAN NATURE IN MARGARET DRABBLE'S NOVELS

Muxammedova Nilufar Eliboyevna,

PhD., dotsent

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: [nilufarmuhammedova@yahoo.com](mailto:nilufarmuhammedova@yahoo.com)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995530>

**Annotatsiya:** Maqola zamonaviy ingliz adibasi Margaret Drebbel ijodida inson tabiati tasvirlarini tahlilga tortadi. Yozuvchi romanlarida inson xarakteri, tabiatini to'rt ko'rinishda ifoda etadi. Tahlilga tortilgan roman qahramonlari orqali adibaning tabiat konsepti ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** inson, tabiat, roman, yozuvchi, ingliz, tushuncha.

**Annotation:** The presented article deals with the analysis of human nature described in the novels of modern English writer Margaret Drabble. In her novels human nature, character is expressed through four concepts. The writer's concept of nature is analysed based on the novel characters.

**Key words:** human, nature, novel, writer, English, concept.

Margaret Drebbel badiiy olamida inson tabiati o'zida t'ort ko'rinishni ifoda etadi. Bular tug'ma qobiliyat, inson biologik jarayoni, moddiy olam (the natural physical world) va "oila"dir. Beqiyos sanalgan bu to'rtta fenomen M. Drebbel uchun jonli va jonsiz tabiatda inson nazorat qila olmaydigan yengilmas kuchdir.

Yozuvchining tabiat konsepti xristian, antik, va romantizmga xos bo'lgan tushunchalar birlashmasidan hosil bo'ladi. Adiba har bir insonning muqaddasligi va yagonaligi haqida gapirganda, u har bir insonda Xudoning uchquni mavjud degan xristian e'tiqodiga xos fikrga tayanadi. Ingliz adabiyotshunosi Nensi Xardin bilan bo'lgan suhbatda M. Drebbel Xudoning har bir inson uchun maxsus rejasi mavjudligi haqida so'zlaydi. [3: 63]. Biroq uning tabiat va moddiy olam haqidagi qarashlari romantizm an'analoriga yaqinroqdir. Romantizm vakillari, jumladan ingliz shoiri Uilyam Uordsvors, yozuvchi insonning tabiatdagi hayvonlar, o'simliklar va geologik olam bilan yaqinligini qaytadan tiklashini istaydi. Shoir kabi adiba ilohiy kuch mavjudligini his qiladi va tabiatga alohida e'tibor bergan holda uni harakatga keltiradi degan fikrni bildiradi. Bu mo'jizaviy kuch butun olamni to'ldirib tursada, u atrofimizdagi tabiatda go'yoki turganday, yurganday bo'ladi. Yozuvchining tabiat in'omi sanalmish tug'ma qobiliyat, inson biologik jarayoni, moddiy olam (the natural physical world) va "oila" borasidagi qarashlarida klassikaning ta'siri seziladi. Ayniqsa, uning bunday in'omlarning o'tkinchi ekanligini va insonning ulardan ko'proq foydalana olishiga ishonchi klassik "imkoniyatdan foydalan" (carpe diem)



kabi munosabatini ifodalaydi. Tabiatning in'om etgan to'rt fenomeni bois, tabiat cheksiz hurmatga sazovor va shuning uchun uning oldida bosh egishimiz lozimdir deb hisoblaydi M. Drebbel. [2: 96]. Inson o'z tabiatidan kelib chiqqan holda hayot kechirishi va yangilikka intilib yashashi, o'zida kechayotgan biologik jarayonni va maylni qadrlay olishi, insonning moddiy olamdagi o'rnini bilishi va insonning tabiat bergan qobiliyatini rivojlantirishi zarurdir. Adiba uchun mana shu tarzda hayot kechirish shubhasiz ma'naviy barkamollikka olib keladi yoki farovon hayot kechirishga, o'zligini anglashga undaydi.

M. Drebbel har bir inson tug'ma qobiliyat sohibi ekanligiga ishonadi, agar unga to'sqinlik qilinmasa hayot davomida u ko'zga tashlana boshlaydi va rivojlanadi. Yozuvchi ko'pincha insonni o'simlikka qiyoslaydi: agar e'tibor berilsa, u gullaydi va meva beradi. Inson ham shunday jarayonni boshdan kechiradi. Inson o'z tabiatidan kelib chiqqib o'ssa, ulg'aysa, bunday hayot ma'nan va ruhiy sog'lom hayot kechirishni anglatadi. Adiba bu borada quyidagilarni tushuntiradi: "Biz o'z tabiatimizga qarshi ish ko'rishimiz mumkin. Biroq butunlay qarshi bora olmaymiz. Azobsiz o'zingni butunlay o'zgartira olmaysan, agar o'zgartira olsang yoki aqldan ozasan, yo keraksiz buyumday bo'lib qolasan" [1: 88].

Yozuvchining ko'p qahramonlari mana shunday fikr egalaridir. Ular doimiy ravishda to'g'ri yo'ldan borish yoki o'zlarini oqlash uchun tabiatidan kelib chiqib ish ko'radilar. Hatto g'ayritabiiy va salbiy mayllarga ham chetda qolmaydi. Jumladan, Emma Ivans qimmatbaho nobop viktorian mebellarga va mayda-chuyda buyumlarga bo'lgan qiziqishi haqida gapiradi: "Bunday buyumlarga befarq emasligimni, ularning qanday ahamiyatga ega ekanligini bilaman, mana shu narsa atrofdagilarda meni bema'ni inson sifatida ko'rsatadi. Ularning fikrlarini noto'g'ri demayman, biroq men shunday yaratilganman" [4: 126]. "The Needle's Eye" asarining qahramoni Rouz Vassiliou o'z tabiatiga suyangan holda ish ko'rish samarisiz ekanligidan qayg'uga tushadi. Tabiat in'om etgan xarakter Rouzni atrofdagilar oldida ojiz qilib ko'rsatadi, u odamlarga juda ishonuvchan. Biroq bunga qaramay Rouz tabiatini borligicha qabul qiladi: "ba'zida tabiati uni xafa qilgan bo'lsada u endi ancha unga moslashib olgandi, uni butunligicha qabul qildi, injiqliklarini tushuna olishini his qildi. Rouz qanday yaralgan bo'lsa, shunday edi, u tabiatiga qarab ish ko'rishni o'rganib oldi". [5: 256]

"The Realms of Gold" romanining boshqa bir qahramoni Jenet Byord esa baxtsiz nikohini o'zgartirish uchun biror bir yo'l mavjud emasligini fahmlaydi, na o'zining na erining tabiati o'zgarishiga ishonmaydi. Jenet inson o'z tabiatiga muvofiq yashashi muhimligiga ishonadi. Shu sabab ham u katta xolasi Konning eski qarovsiz uyida achinarli holda o'tgan so'nggi kunlarini fojea hisoblamaydi. Jenet



amakivachchasi Frensisga o'z munosabatini quyidagicha tushuntiradi: “Men kimligimni angladim va uni izladim. Biroq bu nimaligini bilmayman. Uning qaerdaligini bilaman, shuning o'zi etarli. Shuning uchun, Kon xolaning bunday o'lim topishi fojea emas, u o'zligicha qoldi, nimani nazarda tutganimni bilasiz” [6: 185]. Frensis uning fikrlarini ma'qulladi va yosh jiyani Stefenning joniga qasd qilganini shu tarzda qabul qildi: “Qat'iylik bilan Stefen o'z tabiati bilan, hayot va o'lim shartlari bilan yuzma yuz bo'ldi va nima qilish zarurligini angladi” [6: 205].

Shu bois M. Drebbel g'ayritabiiy va o'zini halok qiladigan xulq atvorni, agar u inson tabiatidan kelib chiqqan bo'lsa, fojea deb hisoblamaydi. Adiba mana shu tabiatning o'zgarishidan yoki unga qarshilik qilishidan afsus chekadi. Yomon tabiiy sharoit o'simlikning o'sishiga to'sqinlik qilganday, nosog'lom oilaviy va ijtimoiy sharoit insonning to'g'ri o'sishini o'zgartiradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hannay J. The Intertextuality of Fate A Study of Margaret Drabble. – University of Missouri Press Columbia, 1985. – 122 p.
2. Harper M. F. Margaret Drabble and the Resurrection of the English Novel//Rose, E. C. (ed) Critical Essays on Margaret Drabble. – G. K. Hall & Co, 1985. – 205 p.
3. Kenyon O. Margaret Drabble. Foregrounding the Female //Women novelists today. – N.Y.: St. Martin's press, 1988. – P. 85-103.
4. Drabble M. The Garrick Year. Weidenfeld & Nicolson, 1964.
5. Drabble M. The Needle's Eye. Weidenfeld & Nicolson, 1972.
6. Drabble M. The Golden Realms. Weidenfeld & Nicolson, 1975.